



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Nishonov Akmal Obidovich

Fargona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy  
markazi "Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasи  
o'qituvchisi

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI  
O'QITUVCHILARINING KASBIY SIFATLARINI  
RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'qituvchilarda kasbiy sifatlarni shakllanishi ularni shaxs sifatlari bilan birga faoliyat talablari bilan uzviy bog'liqligi masalalari tahlil qilingan. Shu bilan birga kasbiy sifatlarni shakllanishida individual psixologik xususiyatlarni o'rmini baholash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *modernizatsiya, kasbiy sifat, fanlararo aloqadorlik, kommunikativlik, texnologik jarayon, motivatsiya pedagogik shart-sharoitlar, individual, innovatsiya.*

Mamlakatimizda ta'lrim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrashga qodir, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning modernizatsiyashayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti, mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

Kasbiy sifatlarni shakllantirishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotini yanada takomillashtirishda ishlab chiqarish sohalarini rivojlanish, zamonaviy texnika va texnologiyani muayyan sohalarga tatbiq etish, ulardan samarali foydalanish yo'llari haqida to'liq bilimga ega bo'lishlari ochib beriladi.



Zamonaviy mutaxassis o‘z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo‘nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo‘llarini ko‘ra bilishi lozim.

O‘qituvchilar kasbiy sifatlarining shakllanganligi pedagogik mehnatning barcha tomonlari: (kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxsiyat rivojlanishida, mehnatning majmuiy natijasi)da namoyon bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, talim muassasasi o‘qituvchisining eng muhim vazifasi kasbiy sifatlarini barqarorlashtirish, to‘ldirish va uzatish mexanizmlarini boshqarish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat.

O‘qituvchilarda kasbiy sifatlarni shakllantirishda quyidagilar taqozo etiladi: pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotida muammoli vaziyatlarda aniq qaror qabil qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish; ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun fanlararo o‘zaro aloqadorlikka erishish asosida muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni tizimlashtirish; pedagog kadrlar tayyorlash tizimi sifatini oshirishda ta’limning yangi shakllaridan foydalanish jihatlarini ilmiy asoslash.

Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirishni bilim olishga qiziqish va qobiliyatni, pedagogik madaniyatni takomillashtirishga qaratilgan omil sifatida qarash lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida o‘qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

O‘qituvchilar o‘zlarida kasbiy sifatlarni shakllantirishlari uchun faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirishi va unga erishishi uchun quyidagi shartlarga rioxva qilishi kerak.

1. O‘z bilimini mustaqil oshirish, ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi va axborot resurs markazi imkoniyatlaridan unumli foydalanish, o‘quv xonasi, ustaxona va amaliyot shart-sharoitlari ta’lim oluvchilariga moslashtirish kerak.

2. Xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar o‘zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- o‘quvchilarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olish;

- o‘quvchilar bilan kommunikativ aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyatining turli jahbalariga faol ta’sir etish.

3. O‘qituvchi o‘zining kasbiy sifatlarini shakllantirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik obyektlarni to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi kerak.

4. Pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual tarzda yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

5. O‘qituvchi o‘z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma’lum maqsadga yo‘naltirish zarur. Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi;
- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik-psixologik va texnik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

Ta’kidlash joizki, o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarni shakllanishi ularni shaxs sifatlari bilan birga faoliyat talablari bilan uzviy bog‘liqligi masalalari keng doirada tahlil qilindi. Shu bilan birga kasbiy sifatlarni shakllanishida individual psixologik xususiyatlarni o‘rnini baholash muhim sanaladi.

Hozirgi vaqtida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarini shakllantirishda kasbga



yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasiga katta e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalilanayotgan innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘lajak mutaxassisida kasbiy sifatlarni shakllantirish va tarbiyalash tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsion tayyorgarlikning bosqichma-bosqich shakllanishiga yordam beradi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313 sonli “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3523206>
2. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Diss.p.f.n. –T.: 2006. –182 b
3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004.– 126 b
4. Asqarov A.D. Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish // pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2017. -52 b